

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING
QARORI**

**BOLALAR MUSIQA VA SAN’AT MAKTABLARI XODIMLARI MEHNATIGA HAQ
TO‘LASHNI TAKOMILLASHTIRISH TO‘G‘RISIDA**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining 2012-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va Davlat budjeti parametrlari to‘g‘risida” 2011-yil 30-dekabrda PQ-1675-son **qaroriga** muvofiq hamda bolalar musiqa va san’at maktablari o‘qituvchilari, konsertmeysterlari va rahbar xodimlari mehnatini qo‘shimcha ravishda rag‘batlantirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining 2012-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va Davlat budjeti parametrlari to‘g‘risida” 2011-yil 30-dekabrda PQ-1675-son **qaroriga** muvofiq bolalar musiqa va san’at maktablari o‘qituvchilari, konsertmeysterlari va rahbar xodimlari mehnatiga haq to‘lashning bazaviy tarif stavkalari 2012-yil 1-yanvardan boshlab ularning pedagogik yuklamasi 10 foizga ko‘paytirilishi bilan bir vaqtda o‘rtacha 20 foizga oshirilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Bolalar musiqa va san’at maktablari o‘qituvchilari va konsertmeysterlariga pedagogik yuklama:

boshlang‘ich sinflar o‘qituvchilari va konsertmeysterlariga — haftasiga 24 soat;

yuqori sinflar o‘qituvchilari va konsertmeysterlariga — haftasiga 20 soat etib belgilansin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi:

O‘zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi bilan birgalikda bir hafta muddatda bolalar musiqa va san’at maktablari o‘qituvchilari, konsertmeysterlari va rahbar xodimlari mehnatiga haq to‘lashning bazaviy tarif stavkalarining yangi miqdorlarini belgilangan tartibda tasdiqlasin;

bolalar musiqa va san’at maktablari o‘qituvchilari va konsertmeysterlari tarifikatsiyasiga o‘zgartirishlarning o‘z vaqtida kiritilishini ta’minlasin;

manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda bir oy muddatda idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarni ushbu qarorga muvofiqlashtirsin.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosari A.N.Aripov zimmasiga yuklansin.

O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent sh.,
2012-yil 3-may,
127-son

(O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2012-y., 18-son, 204-modda)